JIZZAX VILOYATI YANGIOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-oktabr 172-3-54-Q/24 Yangiobod tumani hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga hududlarni (mikrohudud) biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637 sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 9- va 27-moddalariga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida, umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) tavsifi 1-ilovaga, hududlar (mikrohudud) xaritasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish umumta’lim muassasasi pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uyma-uy) ro‘yxatga olish orqali amalga oshirilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nishonov) va tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i (E.Muxtorov)larga:

Umumta’lim muassasalari, tuman hokimligi va maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga, umumta’lim muassasasi bitiruvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki:

tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi;

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637 sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasiga asosan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

5. Tuman mahallalar uyushmasi (S.Po‘latov)ga: mahalla fuqarolar yig‘inini maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Rajabov), “Yangiobod ovozi” gazetasi tahririyati (A.Muxammadiyev)larga mazkur qarorni hokimlikning www.yangiobod.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda mahalliy matbuotda chop etish va uning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2022-yil 29-sentabrdagi 216-3-54-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Nishonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.B.Qarshiboyev**

Yangiobod tuman hokimining
2024-yil 15-oktabrdagi
172-3-54-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) TAVSIFI

№	Maktab raqami	MFY nomi	Biriktirilgan hududlar
1.	1-maktab	Balandchaqir MFY	Balandchaqir MFYning Yangihayot, Ahillik, Olmazor, Bog‘ishamol, Balandchaqir, Varqin, Istiqbol, Nurafshon, Qo‘rg‘oncha, Parkat ko‘chalari, Yangiobod SHFYning Do‘stlik ko‘chasi
2.	2-maktab	Shodlik MFY	Shodlik MFYning Birlik, Bahor, Shodlik, Ezgulik, Chimguzar, Fidokorlar ko‘chalari
3.	3-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Qatorbog‘, Jiydazor, Yangiariq, Turonshoh ko‘chasidagi 117-145-uylar, O‘rta qishloq ko‘chalari
4.	4-maktab	Sovot QFY	Sovot QFYning Baxt, Navbahor, Navro‘z, Ko‘pkarisoy, Yangibog‘, Buyuk ipak yo‘li, Ziyolilar, Farobiy, Tokzor, Sovot, Kattasoy, To‘qboy ko‘chalari
5.	5-maktab	Xo‘jamushkent QFY	Xo‘jamushkent QFYning Gulbog‘ot, Oqtepa, Erganakli, Feruz, Obi hayot, Mevazor, Shox ko‘cha, Xonkeldi ko‘chalari
6.	6-maktab	Do‘stlik MFY	Do‘stlik MFYning Navobod, Sarchashma, Bog‘iston ko‘chalari
7.	7-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Jo‘langar ko‘chasi
8.	8-maktab	Do‘stlik MFY	Do‘stlik MFYning Nurli yo‘l, Bolg‘ali, Qaropchi, Obod yurt ko‘chalari
9.	9-maktab	Havotog‘ QFY	Havotog‘ QFYning Uchturgon, Zilolobod, Nihol, Qadriyat, Omad, Ibrat, Changovul, Iqbol ko‘chalari va hududdagi 9- harbiy qism, 7-harbiy qism.
10.	10-maktab	Do‘stlik MFY	Do‘stlik MFYning Terakli, Amir Temur, Diyor ko‘chalari
11.	11-maktab	Havotog‘ QFY	Havotog‘ QFYning Qo‘shqand, Elobod, Usmon Nosir, Yangi Bo‘ston, Gulzor, Mevazor, Guliston, Buloqboshi, Yakkatut, Beshtom ko‘chalari
12.	12-maktab	Yangiobod SHFY	Yangiobod SHFYning Barkamol avlod, Yoshlik, Taraqqiyot, Mustaqillik, Ziyokor, Tinchlik, Yangiobod, Istiqlol, Do‘stlik, Saydon ko‘chalari
13.	13-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Soyguzar,Terakzor, Tushguzar, Tegirmonboshi, Sho‘rcha ko‘chalari
14.	14-maktab	Xo‘jamushkent QFY	Xo‘jamushkent QFYning Ma’rifat va Mash’al ko‘chalari

15.	15-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Turonshoh ko‘chasidagi 1-82 uylar, Oqtom ko‘chasi
16.	16-maktab	Sovot QFY	Sovot QFYning O‘zbekiston, Chinobod, Ittifoq, Namuna ko‘chalari
17.	17-maktab	Havotog‘ QFY	Havotog‘ QFYning Qo‘riq, Toshqo‘rg‘on, Fayz ko‘chalari
18.	18-maktab	Sarmich MFY	Sarmich MFYning Yangiariq, Xalqobod, Turonshox ko‘chasidagi 83-115 uylar, Vatanparvar, Bodomzor, Hunarmandlar, Qatorbog‘ ko‘chalari
19.	19-maktab	Yangiobod SHFY	Melobod qishlog‘i, Yangiobod SHFY ning Bunyodkor, Barkamol avlod, Sayqal, Fidokorlar ko‘chalari

Yangiobod tuman hokimining
2024-yil 15-oktabrdagi
172-3-54-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim-muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) xaritasi